



LINGVOKULTURALOGIYA VA MILLIYLIKNING TILDAGI IFODASI

Qurbonova Shaxnoza Damini qizi

Xalqaro innovatsion universitet o'qituvchisi, Qarshi, O'zbekiston

e-mail: shaxnozaqurbonova35@gmail.com

Har bir xalqning milliy tafakkuri, dunyoqarashi va qadriyatlari uning tilida, ayniqsa og'zaki ijod namunalarida yaqqol ifoda topadi. O'zbek xalqining ma'naviy-axloqiy merosida muhim o'rin egallagan maqollar xalq tafakkurining, milliy mentalitetning o'ziga xos oynasidir.

Lingvokulturalogiya – bu til va madaniyat o'zaro munosabatini o'rganuvchi fan sohasidir. Ushbu maqola lingvokultural konseptlar orqali milliy identitetning til vositasida qanday ifodalanishini tahlil qiladi. Bunday konseptlar madaniy qadriyatlar, an'analar va ijtimoiy me'yorlarni o'z ichiga oladi. Tadqiqotning maqsadi – o'zbek va ingliz tillarida bunday lingvokultural birliklar qanday namoyon bo'lishini aniqlab, milliy tafakkur va dunyoqarashni ochib berishdir.

Lingvokulturalogiya til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro munosabatni o'rganuvchi fan sifatida so'nggi yillarda alohida e'tiborga sazovor bo'lib bormoqda (Karasik, 2004; Boldyrev, 2012). O'zbek tilshunosligida esa maqollar stilistikasi (Yo'ldoshev, 1999), semantikasi (Tojiyev, 2013), leksik tahlili (Mamatov, 2018) o'rganilgan bo'lsa-da, ularning lingvokultural va konseptual jihatlari kam yoritilgan. Konseptual tahlil xalq tafakkuridagi asosiy tushunchalarni aniqlashda samarali usul hisoblanadi.

O'zbek xalq maqollarini tahlil qilishda taqqoslash tahlil usuli samarali hisoblanadi. Lingvokultural birliklar - adabiyot, OAV va xalq og'zaki ijodi manbaalaridan tanlab olinadi. Ularning semantikasi, pragmatikasi va ramziy ma'nolari o'rganiladi. Ayniqsa mehmondo'stlik, oila va hurmat mavzulariga doir konseptlar tanlab olinadi va lingvistik-madaniy tahlil qilinadi.

O'zbek xalq maqollari xalqning qadimiy tajribasi, axloqiy-me'yoriy qarashlari, hayotiy falsafasi, e'tiqodi va ruhiyatini mujassam etgan til birliklaridir. Tadqiqot davomida o'rganilgan 100 dan ortiq maqolalardan quyidagi asosiy konseptual toifalar ajratib olindi:

1. Mehnat konsepti: bu konsept o'zbek xalqining mehnatsevarlik, halollik va hunarga bo'lgan munosabatini aks ettiradi. Misol uchun;

“Mehnat qilgan to'yadi, yalqov och qoladi.”

“Qo'l qimirlamasa, og'iz qimirlamaydi.”

“Mehnat — rohat, dangasa — falokat.”

Bu maqollarda “mehnat” konsepti nafaqat moddiy manba, balki axloqiy burch sifatida ham talqin qilinadi. Bu xalqning ongida mehnatga sig'inish darajasida ahamiyat berilganini ko'rsatadi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

2. Kattalik va hurmat konsepti: bu kategoriya o'zbeklar orasidagi ijtimoiy munosabatlar, oiladagi tartib va tarbiyani ko'rsatadi.

“Kattaga hurmat — kichikka izzat.”

“Otani o'rni osmonda.”

“Oqsoqol so'zi — oxirgi so'z.”

O'zbek jamiyatida vertikal tuzilish asosida muomala qilish qadimiy urf bo'lib, bu konsept maqollarda yaqqol aks etgan. Bu orqali xalq mentalitetida ijtimoiy tartib va intizomni saqlash mexanizmlari shakllangan.

3. Ayol va ona konsepti: ayol obraziga nisbatan e'tibor — bu xalqning ma'naviy yuksakligining belgilaridan biridir.

“Onasiz bola – tomirsiz daraxt.”

“Ayol – oila ustuni.”

“Yaxshi xotin – yarim boylik.”

Ayol konsepti maqollarda ko'proq ona, sadoqatli xotin, uy bekasi timsollarida gavdalanadi. Bu holat xalq ruhiyatidagi ayolga nisbatan mehr va hurmatning lingvokultural ko'rinishidir.

4. Sabr-toqat konsepti: sabr va chidam xalq ongida bardosh, aql, va hatto najot timsolidir.

“Sabr qilgan — toqat qilgan g'olib bo'ladi.”

“Sabrning tagi sariq oltin.”

“Sabr bilan tosh yengiladi.

Bu maqollar diniy va ijtimoiy sabablarga ko'ra sabr fazilatini targ'ib qiladi. Ular xalq mentalitetida muammo va sinovlarga chidam bilan yondashish odatini aks ettiradi.

5. Mehmondo'stlik konsepti: bu toifa maqollar xalqning ochiqko'ngilligi, bag'rikengligi va mehmonni qadrlash madaniyatini ko'rsatadi.

“Mehmon kelsa, rizqing bilan keldi.”

“Mehmonga bor — rizqingni oshir.”

“Mehmonni otangdan qolgan merosdek asra.”

Maqollarda mehmon — ilohiy ne'mat timsolida tasvirlanadi. Bu orqali xalqning madaniy qadriyati va jamoaviy hayot falsafasi ko'rinadi.

6. Taqdir va e'tiqod konsepti: bu konsept inson hayotining ilohiy kuchlarga bo'ysunishi, taqdirga ishongani bilan bog'liq.

“Nasibasi borning noni pishadi.”

“Taqdirdan o'tolmaysan.”

“Yozug'ing bo'lsa — qozonda chiqadi.”

Bu maqollar orqali xalq hayotning o'zgaruvchanligiga va Yaratganning irodasiga bo'lgan ishonchni ifodalaydi.

Tahlil shuni ko'rsatdiki, o'zbek xalq maqollarida milliy konseptlar til orqali nafaqat ifoda, balki mustahkamlanib boradi. Har bir konsept xalq tajribasining semantik yadrosi bo'lib xizmat qiladi. Bu maqollar vositasida xalq tarbiyaviy me'yorlarni uzatadi,





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

dunyoqarashni avlod-dan-avlodga yetkazadi, ijtimoiy munosabatlarni me'yorlashtiradi. O'zbek tilidagi lingvokultural birliklar ko'proq kollektivizm, kattalarni hurmat qilish va marosimlarga asoslangan qadriyatlarni ifodalaydi. Mehmondo'stlik, ota-onani hurmat qilish, to'y kabi so'zlar chuqur madaniy ma'noga ega. Ingliz tilidagi privacy (shaxsiy hayot), independence (mustaqillik) va personal space (shaxsiy hudud) kabi birliklar esa individualizm va bevosita muloqotni aks ettiradi. Bu esa har bir til madaniyatidagi qadriyatlar tizimining farqli ekanini ko'rsatadi.

Lingvokultural jihatdan qaraganda, maqollar tildagi madaniy kodlarni saqlovchi mexanizmdir. Bu ularni faqat folklor emas, balki madaniy-pedagogik, lingvosemiotik va psixolingvistik nuqtai nazardan ham muhim ob'ektga aylantiradi. Ushbu tadqiqot til o'rganish va tarjima jarayonlarida madaniy bilimni kiritish zarurligini ko'rsatdi. Lingvokultural konseptlarni tushunish madaniy xatoliklarning oldini olishga va samarali muloqotga yordam beradi. O'qituvchilar va tarjimonlar so'zma-so'z tarjimadan ko'ra, madaniy ekvivalentlikni afzal ko'rishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boldyrev N.N. Kognitivnaya semantika. Tambov, 2012
2. Karasik V.I. Yazikovaya kontseptsiya mira. Volgograd, 2004.
3. Mamatov B. O'zbek maqollarining leksik-semantik xususiyatlari. T.: Akademnashr. 2018
4. O'zbek xalq maqollari. T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 2000
5. Tojiyev M. Til va tafakkur. T.: Fan nashriyoti. 20113
6. Yo'ldoshev A. O'zbek tilining stilistikasi. T.: O'zMU. 1999

